

MEHMONXONALARING INTERYER VA EKSTERYER DIZAYNIDAGI TALABLAR VA O'ZIGA XOSLIKLER

O'qituvchi Babadjanova Z.K.
Urganch davlat universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada mehmonxonalar interyer va eksteryer dizaynidagi talablar va o'ziga xosliklar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, mehmonxona binolarini joylashtirish hududlari, mehmonxona interyeri va eksteryerini dizaynida qo'llash mumkin bo'lgan ahamiyatli dekorativ elementlar to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Mehmonxona, landshaft, relyef, interyer, eksteryer, dizayn, dizayner, makon.

XX-XXI-asrga kelib jamoat binolarining landshaft dizayniga e'tibor kuchaydi, shuningdek mehmonxonalar ham bundan chetda qolmadi. Har bir davlat o'zining tarixiy manbalariga ega ekan, turizm sohasini rivojlantirish borasida zamonaviy talab darajasida mehmonxonalar landshaft dizayniga alohida e'tibor qaratadi.

Bu borada yuqorida aytib o'tilgan barcha ishlarni bajarishga kirishiladi, yani landshaft dizayn sohasining barcga turidan foydalaniladi. Tarixiy shaharlarda ayniqsa mehmonxonalarining landshaft dizayni so'nggi urfda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ammo Yevropa davlatlarining mehmonxonalarga bo'lgan talab darajasi Osiyo va Sharq davlatlarining talab darajasidan tubdan farq qiladi.

Bundan kelib chiqib shuni aytib o'tish lozimki, mehmonxonalar har bir davlatning o'z melitaritetidan kelib chiqqan holda, geografik o'rni, iqlim sharoiti, etnografik omillarga qarab landshaft dizaynini shakllantirish yo'lga qo'yiladi.

Mehmonxona majmuasini qurish uchun hudud bo'lishi kerak bo'lgan asosiy shartlardan biri uning ekologik qulayligidir. Hech qanday holatda u shaharlarning ekologik inqiroz zonalarida joylashmasligi kerak. Uning sanitariya-gigiyena ko'rsatkichlari (havo havzasining tozaligi, shovqin darajasi, aeratsiya, insolyatsiya) normativ talablarga mos kelishi kerak. Mehmonxona yoki mehmonxona majmuasining arxitekturasi murakkab va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u binolarning tashqi ko'rinishini, ularning ichki tartibini, hududning landshaft tashkil etilishini va binolarning ichki bezaklarini o'z ichiga oladi. Har bir komponent muhim va mustaqildir, lekin faqat bitta uyg'un yaxlitlikka birlashgan majmuada ular mehmonxonaning umumiyligi g'oyasiga mos keladigan to'liq badiiy tasvirga aylanadi. Arxitektura, interyer dizayni va reklama mehmonxonaning o'ziga xos xususiyatlari, uning profili, maqsadi, soni va turistlar kontingenti bilan belgilanadigan korxonaning asosiy kontseptsiyasi bilan belgilanadi. Shunday qilib, yuqori darajadagi mehmonxonalar dabdaba va hashamat bilan ajralib turadi, ishbilarmon sayyoohlar oddiy va funktsional interyerlarni afzal ko'radilar. Har qanday mehmonxona majmuasi binosining funktsional tashkil etilishi, birinchi navbatda, mehmonxona turiga va uning sig'imiga bog'liq.

Interyerdagi alohida shinamlikni mato yaratadi. Uni gobelenlar, pardalar, shtorlar, gilamli yo'lakchalar, mebelъ qoplamlari ko'rinishida interyerga kiritish mumkin. Keng oynali oraliqlarni yopish uchun va umuman butunlay bir tomonni qoplaydigan pardalar keng bo'llanilmoqda.

Interyerni dekorativ bezatishda tabiatdagagi jonli shakllardan ham foydalaniladi. O'simliklar estetik roldan tashqari havoni kislorod bilan to'ldirish orqali sog'lomlashtirish maqsadida katta ahamiyat kasb etadi. Arxitekturaviy interyerda ular landshaftli reja fragmenti, akvariumlar, jonli burchaklar, gullar bilan to'ldirilgan yuzalar sifatida namoyon bo'ladi. Arxitekturaviy interyerni bezatishda o'simliklar va jonli mavjudotlarning nafaqat tashqi

ko‘rinishiga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi, balki ularning haroratga, namlikka va yorug‘likka bo‘lgan ehtiyojlarini ham hisobga olish ham juda zarurdir.

Foydalanalgan adabiyotlar

1. Xidoyaov. T.A., Kodirova.C.A., Abduraxmanov.Y.I. Zamonaviy interyer va jixozlash: Oquv qo’llanma. –T.: TAKI. 2012.
2. Dizayn vashey kvartiri. 500 tvorcheskix idey / D.Z. Safina,
3. Aleksandrova N.I. Dam olish majmualari arxitekturasi. - M.: Stroyizdat, 2009.
4. Turizm faoliyatini tashkil etish. Sayohat agentligi boshqaruvi: Darslik / S.A. Bystrov. - M.: Forum: NITs INFRA-M, 2014.
5. Landshaft arxitekturasi: Darslik / V.S. Teodoronskiy, I.O. Xudoniki. - M.: Forum, 2010.